



KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA QO`LLANILADIGAN INNOVATSION METODLAR

Nekvoyeva Sitora Rajab qizi

Muzrabot tumani Bog'i eram mahallasi 38- maktab psixologi

Annotatsiya: Kasb-hunarga yo`naltirish ta`lim jarayonining ajralmas qismiga ayalin ulgurmoqda. Chunki o`quvchilar maktabni tamomlagunga qadar o`zining kelajagi haqidagi muhim qarorni qabul qilib bo`lishi va maktabni tamomlab qaysi yo`nalishda kasb yoki hunar o`rganishni davom ettirishi aniq bo`lishi lozim. Bu borada esa qaror qabul qilish bir munch murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishda qanday metodlardan foydalanish haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Kasb-hunarga yo`naltirish, innovatsiya, metod, kuzatish, tahlil qilish, amaliy mashg`ulot, mustaqil qaror qabul qilish.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki o`quvchilar maktabning quyi sinflaridanoq o`z qiziqishlaridan kelib chiqib qaysi kasbni tanlashlariga aniqlik kiritib olsalar, maqsad aniq bo`lib, harakatlar yo`nalishi ham aniq va ravshan bo`ladi.

Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o`quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.



Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferentsiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi. Bu tadbir o'quvchilar buyon ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O'rganishni metodlar bilan o'tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak.

Kuzatish - o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Quyi sinflarda o'tkaziladigan mehnat darslarida o'quvchilar faaoliyati natijalarini tahlil qilish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Chunki mehnatning turli ob'ektlarini tayyorlash chog'ida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari g'oyat ravshan namoyon bo'ladi: bir xil bola texnik konstruktorni yaxshi biladi, ikkinchi xil bola tikishda mahorat ko'rsatadi, uchinchi xil bola esa maktab uchastkasida o'z qobiliyatlarini namoyon etadi va h.k. O'quvchilarning hujjatlarini va amaliy ish - xarakatlarini tahlil qilish ham bola shaxsini o'rganishda o'qituvchiga yordam berishi mumkin. O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashishi muhimdir.



Psixologlar kasb tanlashda bir qarorga kelish uchun atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo'llashni taklif qilishadi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislar bu borada quyidagi tavsiyalari berishadi.

Psixologik testlar

O'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olishingiz mumkin. Faqatgina bunda onlayn platformalarda duch kelgan testga emas, soha mutaxassislari ishlab chiqqan professional testlarga tayanish kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga «hukm» deb qarash kerak emas. Ular faqatgina moyillik yo'nalishini belgilab beradi.

Bilimlaringizni kengaytiring

Turli kasbiy yo'nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash kerak. Har yili o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda hattoki maktab o'quvchilariga tanish bo'lmagan kasblar bilan ham tanishish mumkin. Ehtimol, ulardan biri sizning tanlovingiz bo'lishi mumkin.

Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing

Maktabni bitirish arafasida o'spirin ko'pincha kasblar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Ular tanlagan kasblarining faqat ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak.

9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq.

Istaklarni tizimlashtiring

Qog'oz oling. O'zingizni qiziqtirayotgan kasblarni vertikal ravishda va tanlanajak kasbdan nimani istashingizni gorizontal ravishda joylashtirib chiqing. Jadvalni iloji boricha batafsil to'ldirish kerak. Tanlangan kasb sohasi va kishi undan nimalarni kutayotgani bir-biriga mos kelsa, «+», mos bo'lmasa «-» ishoralarini qo'yishingiz lozim.



Bu o'z istaklarini aniqlashtirishga yordam beradi va shu istakka mos kasb haqidagi tasavvurni aniqlashtiradi.

Amaliyot

Qaysi kasbni tanlash haqida bir qarorga keldingiz, deylik. Endi o'zingizni shu yo'nalishda sinab ko'rish kerak. Buning uchun turli o'quv-guruhlar bo'lgan ko'plab ixtisoslashgan maktablar va kurslar mavjud bo'lib, ular transport vositalari mexanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o'zingizni sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Zaxira aerodrome

Asosiy tanlovdan tashqari, qo'shimcha ravishda e'tiborga olinuvchi «zaxira» tanlov ham bo'lishi kerak. Chunki hayotni oldindan prognozlashtirib bo'lmaydi, unda har qanday holat ro'y berishi mumkin. Tanlangan yo'nalish bo'yicha o'qishga kira olmay qolgan taqdirda tushkunlikka tushmaslik, boshqa optimal variantlarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Qaror faqat mustaqil qabul qilinadi

Ota-ona tomonidan beriladigan maslahatlar foydali, lekin ular yakuniy qaror bo'lmasligi, yordamchi ta'sirga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Yoki ona-ota o'z yoshligida egallay olmagan, armon bo'lib qolgan kasbga farzandini yo'naltirishi ham noto'g'ri. Farzand – alohida shaxs va uning o'z istaklari bor. Bu istaklar avvalroq armon bo'lgan xohishlar uchun qurbon bo'lmasligi kerak.

Oilaviy an'analarni davom ettirish majburiy emas

Farzand onasi yoki otasining kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa, bu juda yaxshi. Lekin bunga uni majburlash noto'g'ri. Otaning shu kasbda o'z baxti va muvaffaqiyatini topgani o'g'ilda ham xuddi shu ssenariy takrorlanadi degani emas. Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullansa, o'zini baxsiz his qiladi.



Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak:

- Sizni yaqindan biluvchi insonlar – oila a'zolaringiz, do'stlaringiz bilan maslahatlashgan holda, o'zingizga qaysi kasb ko'proq mos kelishi haqida so'rab olishingiz mumkin.
- Ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Maxsus manbalar (adabiyotlar, onlayn platformalar) talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beradi.
- Istaklaringiz va hayotdagi maqsadlaringizdan kelib chiqing.
- To'plagan ma'lumotlaringizni chuqur tahlil qiling. «Hayotda menga nima kerak?» degan savolga javob berishga harakat qiling.
- Imkoniyat bo'lsa, kasb tanlash bo'yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
2. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. “Umumiy psixologiya”. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 97 b
3. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.
4. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.
5. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008
6. T.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. —Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. —IQTISOD-MOLIYA 2009. 106-bet.